



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 1

MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATIDA INDIVIDUAL NEOLOGIZMLARNING LINGVOPOETIK TAHLILI

Ixtiyorbek Norov

Nukus davlat pedagogika instituti O'zbek tili kafedrasи fan kabineti mudiri

Ma'lumki, "badiiy ijodda shoir va yozuvchilar doimo yangi so'z yasashga intilib kelganlar. CHunki so'zning tasviriy imkoniyatidan mumkin qadar keng foydalanishga intilish, kutilmagan, g'ayriodatiy, yangi obrazlar yaratish ehtiyoji, ifodani yangicha tarzda berish zarurati ijodkorlarni ana shunday yo'l tutishga undaydi" (1). Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, Muhammad Yusuf asarlarida ham yangi yasalmalar, okkazional neologizmlar muhim uslubiy vazifalarni bajaradi. Masalan, birgina shoir asarlaridagi shaxs oti yasovchi qo'shimchalar yordamida hosil qilingan individual-neologizmlar tahlili ham bizning bu fikrimizni to'la tasdiqlashga xizmat qiladi:

1. -dosh qo'shimchasi bilan yasalgan individual neologizmlar. SHoir "Erka kiyik" nomli she'rida:

Soch oqardi, dildosh kutib ko'zim toldi,

YUragimdan to'kilmay ne so'z qoldi, (61)- deb yozgan edi.

Keltirilgan parchada dildosh okkazionalizmi dilni tushunuvchi, dilga yaqin odam ma'nosini bildiradi va bu ma'nosi bilan jondosh so'zining ma'nosiga yaqin turadi. Bu o'rinda dil – yurak – qalb – ko'ngil sinonimik qatoridan aynan dil so'ziga –dosh qo'shimchasining qo'shilishi ma'noni yanada kuchliroq ifodalashga vosita bo'lgan.

2. -boz qo'shimchasi bilan yasalgan individual neologizmlar. Bu qo'shimcha bilan yasalgan so'zlar kasb-hunar bilan shug'ullanuvchi, o'zakdan anglashilgan predmetlarni tarbiyalovchi, unga moyil bo'lgan shaxslarni ifodalaydi, biror narsa bilan mashg'ullikni, ishqibozlikni anglatadi (2) . Masalan:

Eslamasa nima, men bir to'pori

Qishloqi so'zbozni, osmon yiqilmas ("Ertak", 193).

Men shoir emas, men nazmboz kosib,

SHe'rim shuhratimga emas munosib ("YAlpiz", 192).

Keltirilgan parchalardagi so'zboz, nazmboz okkazionalizmlari va'daboz, safsataboz so'zlari kabi salbiy bo'yoqdorlikka ega. So'z, nazmboz yasalmalari orqali



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 1

shoir hali haqiqiy shoir, ijodkor darajasiga ko‘tarilmagan, so‘z izlash bilan ovora shaxslarni nazarda tutgan ko‘rinadi.

3. -furush qo‘shimchasi bilan yasalgan individual neologizmlar. Bu qo‘shimcha tojikcha sotmoq ma’nosidagi furuxtan so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zakdan anglashilgan predmetni sotish bilan shug‘ullanadigan shaxs ma’nosini ifodalaydi. Shu qo‘shimcha ishtirokida yasalgan vatanfurush so‘zida salbiy bo‘yoqdorlik kuchli bo‘lib, izohli lug‘atda bu so‘z quyidagicha izohlangan: o‘z vatanini, xalqini sotuvchi, o‘z vataniga, xalqiga xiyonat qiluvchi, sotqin, xoin (O‘TIL, P, 175). Muhammad Yusuf she’rlarida bu so‘zga to‘liq ma’nodosh hisoblanuvchi “yurtfurush” so‘zi ham qo‘llangan. Quyidagi parchaga diqqat qilaylik:

Bir o‘y qiynamasmi gohida sizni
Navro‘zfurushlar? (“Sumalak”, 78).

Bu she’riy parchadagi navro‘zfurush so‘zidagi –furush qo‘shimchasi Navro‘zni sotganlar, Navro‘zga xiyonat qilganlar ma’nosini ifodalab, 80-yillardagi ayrim rahbar shaxslarga nisbatan achchiq kinoya sifatida qo‘llangan.

4. -vachcha qo‘shimchasi bilan yasalgan individual neologizmlar. Bu qo‘shimcha tojikcha yosh bola ma’nosidagi bachcha so‘zidan olingan, tilimiz uchun unchalik faol bo‘limgan vositadir. U, birinchidan, otlarga qo‘shilib, qavm-qarindoshlik munosabatini bildiradi: xolavachch (xolaning farzandi), amakivachcha (amakining o‘g‘li), boyvachcha (boyning o‘g‘li); ikkinchidan jonivorlarga nisbatan ishlatilganda bola(si) ma’nosini bildiradi: kuchukvachcha (it bolasi), mushukvachcha (mushuk bolasi) kabilar (3). Itvachcha, qulvachcha, gadoyvachcha singari qo‘llanishlarda esa salbiy xarakterdagi uslubiy bo‘yoqdorlik seziladi.

Odatda bu qo‘shimcha qushlar bolasiga nisbatan ishlatilmaydi. O‘zbek tilida qushlarning bolasiga nisbatan ko‘pincha polapon so‘zi qo‘llanadi. Muhammad Yusuf she’riyatida bu qo‘shimcha qushlarga nisbatan qo‘llangani kuzatiladi:

Bulbulvachcha, men senga o‘xshab
Bog‘dan-boqqa ko‘chib yurmayman (“Bulbul”, 82).

Bu parchadagi bulbulvachcha okkazionalizmi nafaqat bulbulning bolasi degan ma’noni, balki, birinchidan, hali g‘o‘r, kamolga (ya’ni bulbul maqomiga) etmagan ma’nosini ifodalansa, ikkinchidan, bo‘ so‘zdagi –vachcha qo‘shimchasi stilistik bo‘yoqdorlikni kuchaytirish uchun xizmat qilgan: barcha qalam sohiblari bulbulga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lsalar, bu erda salbiy munosabat ko‘zga tashlanadi:

Oliftaga gullar barg to‘shab,
Madh etganin boqmay ilg‘ayman.



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 1

Bulbulvachcha, men senga o‘xshab
Bog‘dan-boqqa ko‘chib yurmayman.

5. -iston qo‘srimchasi bilan yasalgan individual neologizmlar. Bu qo‘srimcha millat nomini so‘zlarga qo‘silib, shu millatga mansub joy, hudud (o‘lka, mamlakat kabi)ni bildiradi: O‘zbekiston, Tojikiston, Arabiston kabi. Bog‘iston, qabriston, guliston singari yasama so‘zlar ham tilimizda –iston qo‘srimchasing shu ma’nosи asosida hosil qilingan. Muhammad Yusuf bu qo‘srimcha yordamida chamaniston degan okkazionalizmni hosil qilgan. Shoir ona yurtimiz O‘zbekistonni chamanistonga qiyoslab, ajoyib o‘xshatish hosil qiladi:

Ona yurtim – O‘zbekistonim,
Poylaringga sadqa bu jonim.
Dunyolari ichra ichra bir dunyo,
O‘xhashi yo‘q chamanistonim... (UV, 57).

Shunday qilib, Muhammad Yusuf ijodida so‘z yasovchi qo‘srimchalar ishtirokida hosil qilingan yangi yasalmalar (okkazionalizmlar) miqdor jihatdan ko‘p bo‘lmasa-da , ular she’rning badiiy quvvatini oshiruvchi, xotirada uzoq vaqt saqlanuvchi obrazlilikni yuzaga keltirgan. Ijodda o‘z ovozi va individual uslubiga ega bo‘lishga intilish mayjud ekan, yangi so‘z yaratishga bo‘lgan qiziqish ham davom etaveradi. Chunki yangi so‘z yaratish ekspressiv-stilistik ta’sirni kuchaytirishning, yangi semantik birliklar hosil qilishning, kitobiy-poetik ruh sezilib turishining, she’riy ifoda go‘zalligining shakllanishiga xizmat qiluvchi vositalardan biri sanaladi. Muhammad Yusuf she’rlarida tilimiizning leksik vositalari, takrorlar, individual neologizmlar muhim uslubiy qimmatga egadir, bunday vositalar asar matnini cho‘g‘lantirish, ta’sirchanligini oshirish manbai vazifasini bajargan.

Muhammad Yusuf she’riyatida faqat leksik vositalarga emas, balki “suvga oqizmoq”, “soyasiga ko‘rpacha to‘shamoq”, “ko‘ziga cho‘p solmoq”, “ikki oyog‘ini bir etikka tiqmoq” singari frazeologizmlar ham muhim uslubiy qimmatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aynazarovna, A. B. (2021). Model of developing spiritual and moral competence of learners in the context of learning the English language. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 1320-1325.
2. Arzieva, B. (2019). DEVELOPING PUPILS’SPIRITUAL FEATURES IN THE PROCESS OF LEARNING ENGLISH. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(10).



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 1

3. Джумабаева, Г. Б. (2023). ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ СЕМЬИ И ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ В РАЗВИТИИ КУЛЬТУРНЫХ И ДУХОВНЫХ КАЧЕСТВ ДЕТЕЙ. *QUALITY OF TEACHER EDUCATION UNDER MODERN CHALLENGES*, 1(1), 171-177.
4. Ергалиева, Ж. А., & Джумабаева, Г. Б. (2020). Преемственность в воспитании начальных экономических представлений у детей дошкольного возраста. *Молодой ученый*, (26), 289-290.
5. Amangeldievna, B. A., Kaniyazovna, G. K., Aitgalieva, Y. Z., & Berdiba, G. D. (2020). Preschool Education And Modern Approach Towards It. The Analysis Of Educational Systems In Different Countries.
6. Buranova, B. (2023). The Modulation and Generalization Method in the Process of Translation from Related Languages. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 10(6), 368-372.
7. Tajimuratovna, X. M., Menglibaevna, B. S., Ataxanovna, Y. G., & Zaripbaevna, S. A. (2021). Umumiy O 'Rta Ta'lim Maktablarida O 'Quvchilar Bilimlarini Baholash Va Nazorat Qilishda Elektron Vositalaridan Foydalanish Usullari. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(5), 16-19.
8. Xudayarova, M., & qizi Usanova, Q. M. (2023). O 'ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA OTLARNING KELISHIK KATEGORIYALARI. *CHIQISH KELISHIGI QIYOSI*. *GOLDEN BRAIN*, 1(4), 62-66.
9. Abdullayev, X., & Boltaboyev, O. (2020). THE PSYCHOLOGICAL FUNCTION OF MONOLOGUES IN HISTORICAL NOVELS (ON THE EXAMPLE OF PIRIMKUL KADYROV'S NOVEL " PASSAGE OF GENERATIONS"). *Интернаука*, 46(175 часть 2), 50.
10. Dauletbaevich, A. K. (2022). THE COMPARATIVE VIEW OF RELIGIOUS AND SECULAR THINKING IN THE SYSTEM OF IMAGES. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 9, 316-321.
11. Dauletbaevich, A. K. (2021). Study of "Kutadgu bilig (Wisdom of royal glory)" abroad. *International Journal on Integrated Education*, 4(3), 212-214.
12. Dauletbaevich, A. X., & Ismailovich, D. O. (2022). EXPRESSION OF THE PERSONALITY SPIRITUALITY IN THE CHARACTERS'SPEECH. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 632-637.
13. Abdullaev, K. D. (2021). Artistic and aesthetic function of chronotops in the structure of the novel. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1173-1179.
14. Буранова, Б. (2023). РАВНАЯ ЭКВИВАЛЕНТНОСТЬ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ АДАПТАЦИЯ ПРИ ПЕРЕВОДЕ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ. In *АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ОБЩЕСТВА, НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 146-148).